



## BO'LAJAK PSIXOLOGLARNING KASBIY O'ZINI O'ZI ANGLASHIDAGI AXLOQIY JIHATLAR

Murodova Komila Faxriddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va  
psixologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak psixologlarning kasbiy faoliyatida axloqiy me'yordarga rioya qilish va kasbiy o'zini o'zi anglashning axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Psixologning o'z kasbiy rolini anglash jarayoni nafaqat ilmiy bilim va ko'nikmalarni, balki insoniylik, mas'uliyat, halollik va shaxsiy axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak psixologlar, insoniylik va halollik, axloqiy me'yorlar, kasbiy yondashuv, kasbiy chegara, shaxsiy e'tiqod, keng dunyoqarash, etika, ko'nikma.

Zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonlari bugungi kunda xalqaro mehnat bozorining asosiy talabi hisoblanadi. Sababi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi, o'zini namoyon qila oladigan, o'ziga ob'ektiv baho beradigan kishilar zarur. Ular jamiyat rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadilar. Bu esa o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uzlusiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini, o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga keng joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu asosda, bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya muassasalaridagi o'quvtarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy



ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu o‘rinda bo’lajak psixologlarning kasbiy kompetentligi va uning tahliliy ko‘nikmalariga alohida e’tibor berish lozim[5].

Ta’lim tizimi va boshqaruv sohasidagi har bir muassasalarda pedagog-psixologlar ma’sul shaxslardan biri hisoblanadi. Psixologlarning jamiyatdagi insonlar qamrovi turli bo’lib, bolalar psixologiyasi alohida o’rin va ahamiyat kasb etadi. Bolalar bilan psixodiagnostik tashxislar o’tkazishda bir qator kasbiy-ahloqiy tavsifga ega talablar qo’yilgan. Bu asosiy kasbiy-axloqiy talablar quyidagilardir:

Har qanday sharoitda ham psixologik tashxis natijalari bola shaxsiga ziyon yetkazish maqsadida qo’llanmasligi shart. Psixologik tashxisni faqat bolalarning va ota-onalarning roziligi bilan o’tkazish mumkin (faqat ayrim holatlar bundan istisno, ya’ni tibbiyot va huquqiy sohalarda).

Go’daklik yoki balog’at yoshigacha bunday qarorlarni ota-onalar bolalar ishtirokida qabul qilishi mumkin. Ota-onalar, (ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar bundan mustasno) mutaxassis psixolog psixodiagnostik tadqiqot natijalari asosida tayyorlagan xulosalarni bilishga haqlidir. Psixolog o’z navbatida ota-onalarning farzandlari ruhiyati haqidagi savollariga to’liq, ishonchli va haqqoniy javob berishi shartdir[2].

Psixologik tashxis natijalari, shaxs taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi har xil omillarni hamda ota-onalarning, pedagoglarning fikrlarini inobatga olmasdan, bolaning ta’lim va tarbiyasiga taalluqli takliflarni hal qilishga asos bo’la olmaydi. Bugungi kunda psixologiya sohasi inson ruhiyatini o’rganish va uni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi. Psixologning kasbiy faoliyati nafaqat ilmiy bilimlarga, balki axloqiy me’yorlarga ham asoslanadi. Psixologning o‘zini o‘zi anglash jarayonida kasbiy axloq masalalarini e’tibordan chetda qoldirishning salbiy oqibatlari bo‘lishi mumkin. Shu sababli, psixologning kasbiy o‘zini o‘zi anglashda axloqiy jihatlarni chuqur o‘rganish zarur.

Kasbiy o‘zini o‘zi anglash tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak, Psixologning kasbiy o‘zini o‘zi anglash – bu mutaxassisning o‘z bilimlari, qobiliyatlar, kasbiy qadriyatlar va mas’uliyatini anglash jarayonidir. Bu jarayon shaxsiy refleksiya, kasbiy yondashuvlar va psixologik xizmat ko‘rsatishdagi axloqiy me’yorlarni o‘zida mujassam qiladi. Psixolog o‘z kasbiy faoliyatida shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni chuqur his qilishi, o‘z qilmishlari oqibatini oldindan anglash qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim[1].

Psixologning axloqiy faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Maxfiylik tamoyili – mijozning shaxsiy ma’lumotlari va muammolari maxfiy saqlanishi kerak. Psixolog axloqiy jihatdan mijoz ishonchini suiiste’mol qilmasligi zarur.
2. Zarar yetkazmaslik tamoyili – psixolog o‘z faoliyatida mijozga ruhiy yoki jismoniy zarar yetkazmaslik uchun mas’uldir.
3. Professional kompetentlik tamoyili – psixolog o‘z bilim va tajribasini muntazam oshirib borishi lozim. O‘z bilim doirasidan tashqaridagi masalalar bo‘yicha maslahat bermasligi kerak.
4. Haqgo‘ylik va adolat tamoyili – psixolog mijozga nisbatan adolatli va betaraf bo‘lishi, uni kamsitmasligi, diskriminatsiya qilmasligi kerak[4].

Psixologning o‘zini o‘zi anglash jarayonida bir qator axloqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ular quyidagilar:

Rol va mas’uliyatni noto‘g‘ri baholash – ayrim psixologlar o‘zlarining kasbiy chegaralarini anglamay, mijoz hayotiga haddan tashqari aralashishlari mumkin.

Subyektiv yondashuv – psixologning shaxsiy e’tiqodi va dunyoqarashi mijozga nisbatan adolatli munosabatga halal berishi mumkin.

Axloqiy dilemmaning mavjudligi – ba’zi vaziyatlarda psixologning kasbiy va shaxsiy axloqiy qadriyatlar to‘qnash kelishi mumkin.

Psixologning kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayonida axloqiy jihatlarni rivojlantirish uchun:

1. Professional etika kodeksiga rioya qilish;

2. O‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiya qobiliyatini rivojlantirish;
3. Doimiy ta’lim va malaka oshirish orqali bilim va ko‘nikmalarni yangilash;
4. Superviziya va mentorlik tizimidan foydalanish;
5. Shaxsiy va professional chegaralarni saqlash muhimdir[3].

Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, Psixologning kasbiy o‘zini o‘zi anglash jarayonida axloqiy jihatlarni inobatga olish uning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishining asosiy omillaridan biridir. Axloqiy me’yorlarga rioya qilmaslik mijoz ishonchini yo‘qotish, professionallik darajasining pasayishiga olib keladi. Shu bois, har bir psixolog o‘z faoliyatida axloqiy mas’uliyatni his qilishi va kasbiy axloq qoidalariga qat’iy amal qilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Abdullayeva M. Bo’lajak pedagog-psixologlarda kasbiy o‘zini-o‘zi anglash va o‘zining kasbiy metodikasini rivojlantirish.// qurilish va ta’lim ilmiy jurnali. 2023. 41-43-b.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya Toshkent. 2002. 37-39-b.
3. Karimova V. Psixologiya. Toshkent. 2006. 69-b.
4. Klimov Ye.A «Psixologiya» Spb.: Rech 2000.
5. [www.wikipedia.org](https://wikipedia.org). internet sayti